

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TABIIY FANLARIDA EKSKURSIYA DARSLARI

Alimardonova Mo’tabar Xolmo’minovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Tabiiy
fanlar “kafedrasi o’qituvchisi.

Shomurodova Mohichehra Jahongirovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Boshlang’ich ta’lim “ yo’nalishi
3- bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada boshlang’ich ta’limda tabiiy fanlar darslarida ekskursiya uslubidan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Ekskursiya darslarining o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, fikrlash, tabiatga nisbatan mehr va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, ekskursiya darslarini tashkil etishning bosqichlari, tayyorgarlik ishlari, metodik jihatlari va natijaviy samaralari haqida tahliliy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang’ich ta’limda tabiiy fanlar, ekskursiya darsi, kuzatuvchanlik, ekologik tarbiya , o‘quvchilarda qiziqish, tashqi muhit.

Excursion lessons in primary education natural sciences.

ANNOTATION: This article highlights the importance of using the excursion method in natural science lessons in primary education. The role of excursion lessons in the formation of students’ observation, thinking, love for nature and a sense of responsibility is revealed. Also, analytical ideas are expressed about the stages of organizing excursion lessons, preparatory work, methodological aspects and results.

Key words: Natural science in primary education, excursion lesson, observation, environmental education, interest in students, external environment.

Экскурсионные уроки в начальном образовании по естественным

АННОТАЦИЯ: В статье подчеркивается важность использования метода экскурсий на уроках естествознания в начальной школе. Раскрывается роль экскурсионных занятий в развитии у учащихся наблюдательности, мышления, любви к природе, чувства ответственности. Представлены также аналитические взгляды на этапы организации экскурсионных занятий, подготовительную работу, методические аспекты и конечные результаты.

Ключевые слова: Естествознание в начальном образовании, экскурсионный урок, наблюдение, экологическое образование, интерес учащихся, внешняя

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekskursiya darslarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday darslar orqali o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, mustaqil fikrlash va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usi shakllanadi. Ekskursiyalar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyat bilan bog‘lab, ularni jonli tabiat hodisalarini bevosita kuzatish orqali chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Ayniqsa, ekologik tarbiya jarayonida ekskursiya darslari bolalarda tabiatni asrash, uni qadrlash tuyg‘ularini rivojlantiradi. Darslar samarali o‘tishi uchun o‘qituvchi tomonidan puxta metodik tayyorgarlik, aniq kuzatuv ob’ektlarini tanlash va xavfsizlik choralariga rioya etish muhim hisoblanadi. Natijada, o‘quvchilar o‘quv faoliyatiga faol jalgan etilib, ular hayotiy bilim va ko‘nikmalarini egallashga erishadilar.

Zamonaviy pedagogikada ta’lim jarayonini jlonlantirish, o‘quvchilarni faollashtirish va ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar sohasida bu maqsadga erishishda ekskursiya darslari samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ekskursiya — bu nazariy bilimni real hayotda kuzatish, anglash va tahlil qilish imkonini beruvchi o‘quv faoliyatidir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi o‘quvchilar yosh jihatidan atrof-muhitga qiziqqon, kuzatuvchan va faol bo‘lishadi. Tabiatdagi hodisalar, o‘simlik va hayvonot dunyosi ularning e’tiborini tortadi. Shu bois tabiiy fanlar darsida ekskursiyalarni tashkil etish orqali bolalarning tabiiy hodisalarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, mustaqil kuzatish asosida bilimga ega bo‘lishlari ta’milanadi. Bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat ilmiy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar va ekologik madaniyatni ham shakllantiradi.

Ekskursiya darslarining metodik afzallikkleri

Ekskursiya darslari quyidagi pedagogik jihatlari bilan ajralib turadi:

Jonli tajriba asosida ta’lim: Darsda ko‘rilgan ob’ektlar va hodisalarini bevosita ko‘rish, tegish, hidlash, eshitish orqali o‘rganiladi. Bu ko‘p hissiy sezgilarning jalb qilinishi orqali bilim chuqurroq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Mustaqil fikrlash va izlanish: O‘quvchilar o‘z kuzatuvlari asosida savollar beradi, xulosalar chiqaradi, bu esa ularning mustaqil tafakkurini rivojlantiradi.

Ekologik tarbiya: Tabiatni bevosita ko‘rib, unga mehr bilan qaragan bola uni asrash zarurligini ham his qiladi. Ekskursiya bu borada eng kuchli ta’sirga ega vositadir.

Ekskursiya darsining bosqichlari

1. Tayyorgarlik bosqichi: Dars mavzusi tanlanadi, ekskursiya yo‘nalishi belgilanadi, o‘quvchilarga kuzatuv topshiriqlari va xavfsizlik qoidalari tushuntiriladi.

2. Amalga oshirish bosqichi: Belgilangan ob’ektlarga tashrif buyuriladi, kuzatish va yozuv ishlari bajariladi, savol-javoblar tashkil etiladi.

3. Tahlil va xulosa bosqichi: Sinfga qaytib, o‘quvchilar tajribalarini tahlil qiladilar, umumlashtirish ishlarini bajaradilar: rasm chizish, og‘zaki hikoya qilish, kichik referatlar yozish, guruhlar bilan ishslash.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ekskursiya darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlovchi, tabiatni seuvuchchi va uni asray oluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Bunday darslar orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki hayotiy ko'nikmalar, ekologik madaniyat va ijtimoiy faollilikni ham egallaydi. Shu bois ekskursiya darslari zamonaviy ta'limda o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda va keng qo'llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov B. Ekologik tarbiya asoslari. – Toshkent: “Universitet”, 2018.
2. Nasriddinova G. Boshlang'ich ta'limda integrallashgan darslar. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2020.
3. Nematov A., To'ychiyeva N. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2021.
5. Rajabov Q., Saidqulova M. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2019.
6. Tursunov U. A. Ilk va boshlang'ich ta'limda darsdan tashqari ishlar. – Toshkent: “Fan”, 2021.
7. Yo'ldoshev A. Sh., To'xtaeva D. I. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.